

TEMURIYLAR VA SHAYBONIYLAR DAVRI TANGALARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix yo'nalishi
1-bosqich talabalari Sheraliyev Abdulaziz va Xolmamatov Botir*

ANNOTATSIYA: Ma'lumki davlat va jamiyat, iqtisodiyot asosini pul va pul munosabatlari tashkil qiladi. Va albatta mustaqil davlatning doimo o'z pul birligi bo'lishi shart. Chunki milliy valyuta har qaysi davrda ham mamlakat ramzi va hokimiyatda turgan humdor hokimiyati qonuniyligi isbotlovchi simvol bo'lib kelgan. Temuriylar va Shayboniylar davrida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan

KALIT SO'ZLAR: Pul islohoti ,miri,Cig'atoj tangalari, "fulusiy tangalar", dirham, dinor, Maxmud Sulton, Shayboniyxon,misqol halifalar.

ANNATATION: It is known that money and money relations form the basis of the economy of the state and society. And of course, an independent country must always have its own currency. Because the national currency has always been a symbol of the country and a symbol proving the legitimacy of the ruling government. Special attention was paid to this issue in the period of Timurids and Shaibanis

KEY WORDS: Monetary reform, miri, Cigatai coins, "philusian coins", dirham, dinar, Mahmud Sultan, Shaibani Khan, miskal, caliphs.

KIRISH: Amir Temur o'zining dastlabki hukmronlik yillaridan boshlab so'ngi chig'atoj sulolasiga xonlari hukmronligi oqibatida to'la izdan chiqqan pul muomalasi ahvoliga e'tibor qaratgan. Shu sabab mamlakat iqtisoiy ahvolini yo'lga solish maqsadida XIV asrning 80-yillari atrofida pul islohotini o'tkazdi.

Hozirda buyuk davlat arbobi nomi bilan bitilgan mashhur tangalarning eng qadimgisi 1372-1373-yillarga borib taqaladi. Ular chig'atoj tangalari andazasi bo'yicha zarb qilingan Sohibqiron pul islohotining assosini ikki xil qiymatga ega bo'lgan kumush tangalar: yiriklari "tanga" deb atalib, diametri 2,5-3 sm., og'irligi 6,40 gr. va nisbatan kichiklari esa "miri" – diametri 1,5-1,6 sm., og'irligi 1,5 gr.ni tashkil qilgan. Ya'ni, bir tanga to'rt "miri"ga teng bo'lgan. Tangalardagi arab va mo'g'ul tillarida bitilgan yozuvlar ayrim farqlarga ega bo'lsa-da, tangalar asosan bir andazada zerb qilingan. Tangalarning aversi (old)da birinchi o'rinda chingiziyalar avlodidan bo'lmish (soxta xon) Muhammad Suyurg'at mish (1370-1388-yillar) hamda Sulton Mahmud nomi, shuningdek, mamlakat gerbi "uch doira" aksi tushirilgan. 1397-yildan boshlab tangalarda "taxt va davr vorisi – Muhammad Sulton" yozuvi paydo bo'jadi. U Amir Temur tomonidan taxt vorisi deb e'lon qilingandi. Ammo taxt vorisi 1403-yilda vafot etadi.

Shayboniyxonlar tomonidan o'lkada ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jumladan, 1507-1508, 1529-1530, 1583, 1598 yillarda pul islohotlari amalga oshirildi. Bu davrda Shayboniylar nomi bilan yangi kumush va mis tangalar zARB etildi. Oltin tangalar esa faqatgina Abdullaxon II davrida zARB etilgan. 1507 yili Muhammad Shayboniyxon Hirotni egallagach shaharning jome' masjidida pul islohoti to'g'risida farmon berdi. Bu davrda Hirotda pul muomalasi chuqur inqirozga uchragan edi. Bu islohot jamiyatning boy savdogarlar qatlamini Shayboniyxon tomoniga og'dirishi kerak edi. U kumush tanga muomalasi, ishonchli savdo va o'zgarmaydigan zarbxona va'da qildi. Kumush muomalasining asosida Muhammad Shayboniyxon yorlig'i bilan chiqarilgan yangi bezakli tanga yotadi. So'ngi Temuriylar tangasi misql bilan tenglashib, uning vazni 4,8 grammni tashkil qiladi. Shayboniyxon yangi tangasining og'irligi misqloning 1/12 qismiga teng bo'lgan. Misqloning og'irligi 5,2 grammni tashkil etgan. Shayboniyxon islohoti Temuriylarning bir misqolli tangalarini muomalada bo'lishini ta'qilamadi, lekin ularning qiymatini pasaytirdi. Shayboniyxon tangalarida quyidagi yozuvlarni ko'rishimiz mumkin: Zarb Samarqand, 907 h./1501-1502 y. O'lchami. 23-27 mm; Og'irligi. 4,8 gr.

Tanganing chetlarida "Muhammad ... bani xan" – "Sulton" deb yozilgan. Tadqiqotchi G.A.Xudyakov shu yuqorida o'chib ketgan yozuvlar o'rnini keyingi tangalar bilan solishtirib shunday qayta tiklagan, *Ollohnning ishlari davomchisi, din himoyachisi – Muhammad Shayboniyxon. Olloh uning umri va hukmronligini ziyoda qilsin!*

Tanganing reversida – *Ollohdan boshqa iloh yo'q! Muhammad uning elchisi!* Aylanasiga 4 ta halifaning ismlari bitilgan. *Umar-al-Farrux, Usmon al-Affon, Abu Bakr.* Shayboniylar tangalarida yozuvlarni bezatgan naqshlar bo'lib, bu bezaklar xalqa, gul, uchlari tugilgan to'rtburchak shakkarda bo'lgan. Yozuvlar ko'p hollarda nasx yoki kufiy uslubida bitilgan. Ba'zan tomonlardan biridagi yozuv o'rniga turli naqshlar yoki hayvon, qushlarning rasmi tushirilgan.

XULOSA: Agarda temuriylar va shayboniylar davri iqtisodiy hayotini solishtiradigan bo'lsak, temuriylar davrida iqtisodiy hayot ancha rivoj topganini ko'rishimiz mumkin. Shayboniylar davlatida iqtisodiy hayot temuriylar davridagidek rivojlanmaganiga sabab shayboniy xonlarning o'zaro urushlarini keltirishimiz mumkin. Har gal mamlakat boshiga yangi xon kelganida u o'z nomiga pul zARB etirishi mamlakatda savdo sotiq ishlarni izdan chiqargan. Abdullaxon II davrida ma'lum muddat iqtisodiy barqarorlik kuzatilgan bo'lsada, uning vafotidan so'ng mamlakat yana mahalliy nizolar girdobida qoldi. Ashtarxoniyrlar davriga kelib esa butun moliya tizmi va pul zARB etish deyarli inqirozga yuz tutdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayeva O., Salomov J. Numizmatika. – T., Fan va texnologiyalar, 2012.

2. O‘lmas obidalar / O‘zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari bo‘yicha tadqiqotlar / M.Is’hoqov., N.Rahmonov., Q.Sodiqov., B.To‘xtiev. – T: Fan, 1989. - B. 98-100.
3. Xudyakov G.A. Noviye danniye o monetnom chekane Karaxanidov i Sheybanidov // Numizmatika Sentralnoy Azii. VII. Sbornik statey. Pod redaksiyey akademika AN Respublikи Uzbekistan E.V.Rtveladze. – T., 2004. – S. 70-79.
4. Xoliqov Z. Jahongirov B. So‘nggi o‘rta asrlar tangalari // Moziydan sado, -№ 3. - B. 26-27. 2008.